




YEVROPA ITTIFOQI



AGROMETEOROLOGIK BYULLETEN

Noyabr-Dekabr (3) - 2023



Mundarija

Farg'ona vodiylarida noyabr-dekabr oylari uchun agrometeorologik byulleten	3
1. Farg'ona vodiysida noyabr oyi issiq bo'ldi	4
2. Farg'ona vodiysida noyabr oyi quruq bo'ldi	6
3. Noyabrda kuzgi g'alla ekinlari uchun agrometeorologik sharoitlar va dala ishlari	7
4. Fermerlar uchun g'alla ekinlarini kuchli sovuqdan himoyalash tadbirlari	10
Xulosa	10

Mazkur byulleten Hidrometeorologiya xizmati agentligi va BMT Taraqqiyot Dasturi hamkorligida, Yevropa ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan "Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi va barqarorlik" loyihasi doirasida tayyorlandi.

Ushbu nashrda keltirilgan fikr va hulosalar muallifning o'z nuqtai nafari bo'lib, BMT, shuningdek BMTTD va BMT ga a'zo davlatlarning rasmiy nuqtai nafari hisoblanmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) kambag'allik, tengsizlik va iqlim o'zgarishi sababli paydo bo'lgan adolatsizlikka qarshi kurashda BMTning yetakchi tashkilotidir.

170 ta mamlakatdagi keng ekspertlar va hamkorlar tarmog'i bilan faoliyat olib borib, biz odamlar va sayyora uchun muvofiqlashtirilgan, uzoq muddatli yechimlarni yaratishga yordam beramiz.

Biz haqimizda ko'proq ma'lumotni undp.org/uzbekistan saytidan yoki [@UNDP Uzbekistan](https://twitter.com/UNDP Uzbekistan) ijtimoiy tarmoqlaridan olishingiz mumkin.

Farg'ona vodiylarida noyabr–dekabr oylari uchun agrometeorologik byulleten

2023 yilning noyabr oyi O'zbekistonda meteorologik kuzatuvlarning barcha yillari uchun eng issiq noyabr oyi reytingida birinchi o'rinni egalladi [1]. Bu tendentsiya Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida ham kuzatilib, vodiylarida o'rtacha oylik havo harorati ko'p yillik iqlimiy me'yordan 2–4 daraja yuqori bo'ldi (*Rasm.2 va Jadval-1*).


1. Farg'ona vodiysida noyabr oyi issiq bo'ldi

Noyabr oyining o'ziga xos iqlimiy xususiyati – bu uning oy boshidan oxirigacha haroratning tez pasayib borishidir. Ammo, 2023 yilning noyabr oyida bunday tendentsiyalar kuzatilmadi, oyning boshida ham, oxirida ham haroratning yuqori qiymatlari saqlanib turdi. 1-Rasmda Farg'ona tayanch kuzatuv punktida ham buni ko'rishingiz mumkin.


Farg'ona vodiysida oy davomida o'rtacha oylik havo harorati tekislik hududlarida $+9^{\circ}\text{C} \div +11,1^{\circ}\text{C}$, tog' oldi hududlarida $+7,3^{\circ}\text{C} \div +9,7^{\circ}\text{C}$ va tog'li hududlarda $+5,2^{\circ}\text{C} \div +8,4^{\circ}\text{C}$ iliq bo'ldi (*Rasm.2 va Jadval-1*). Ushbu ko'rsatkichlar noyabr oyi uchun xos iqlimiy me'yor ko'rsatkichlaridan yuqori hisoblana-di. Bu kabi qiymatlar Farg'ona vodiysi viloyatlarida joylashgan barcha meteorologik kuzatuv stantsiyalari uchun kuzatuvlar davri boshlangandan buyon eng issiq g'ayritabiiy noyabr oyini taqdim etdi. O'rtacha oylik havo haroratining ko'p yillik iqlimiy me'yor ko'rsatkichlariga nisbatan chetlashishi hududlar bo'yicha turli qiymatlarda o'zgardi (*Rasm.6*). Noyabrda vodiyning tekislik hududlarida o'rtacha oylik havo haroratining me'yordan chetlashish 2,5 dan 3,6 darajagacha, tog' oldi hududlarida 1,8 dan 3 darajagacha hamda tog'li hududlarda 3,9 dan 4,3 darajagacha yuqori kuzatildi.

1-jadval


T/r	Meteorologiya stantsiyalari	Havo harorati, °C		Yog'ingarchilik, mm	
		O'rtacha oylik	Me'yor	O'rtacha oylik	Me'yor
1	Andijon	9,4	6,8	13	30,3
2	Bo'z	8,9	6,4	5,5	24
3	Qo'rg'ontepa	8,2	6,4	16,9	41,5
4	Ulug'nor	9	6,2	9,5	20,9
5	Namangan	11,1	7,5	11,4	23,9
6	Pop	0,9	7,6	6,1	19,8
7	Kosonsoy	9,7	7,7	15,9	30,1
8	Qamchiq	5,2	0,9	35,5	78,4
9	Farg'ona	10,4	7,2	4	18,9
10	Qo'qon	10,3	7	3	13,8
11	Quva	9,7	6,9	8	26,7
12	So'x	7,3	4,3	35,7	22,8
13	Shohimardon	8,4	4,5	17,4	25,3



1-Rasm. Farg'ona meteorologiya stantsiyasida 2023-yil noyabr oyi o'rtacha oylik havo haroratining ko'p yillik o'rtacha iqlimiy me'yor ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishi, °C




2-Rasm. 2023-yil noyabrda Farg'ona vodiysida kuzatilgan o'rtacha oylik havo harorati, °C




3-Rasm. 2023-yil noyabrda Farg'ona vodiysida kuzatilgan o'rtacha oylik havo haroratining ko'p yillik o'rtacha qiymatga nisbatan chetlanishi, °C

2. Farg'ona vodiysida noyabr oyi quruq bo'ldi

Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida noyabrda havo harorati rejimida bo'lgani kabi yog'ingarchilik rejimida ham ma'lum bir o'zgarishlar yuz berdi. Oy davomida umumiy yog'ingarchilik So'x tumanini hisobga olmaganda vodiylar bo'ylab juda kam kuzatildi (*Rasm 4-5 va Jadval-1*). Noyabr oyida umumiy yog'ingarchilik vodiylarning tekisliklarida 3-13 mm, tog' oldi hududlarda 15,9-35,7 mm va tog'larda 17,4-35,5 mm oralig'ida qayd etildi. Yog'inlar Farg'ona vodiysi bo'ylab turli taqsimotga ega bo'lib, vodiylarning sharqiy, shimoli-sharqiy, shimoli-g'arbiy va So'x anklav hududlarida biroz ko'proq kuzatildi (*Rasm.4*). Ushbu davrda yog'inlar vodiylarning janubi-g'arbidan shimoli-sharqqa tomon ortib borish tamoyilida o'zgardi.



4-Rasm. 2023-yil noyabrda Farg'ona vodiysida kuzatilgan yog'ingarchilik miqdori, mm



5–Rasm. 2023 yil noyabrdagi yog'ingarchilikning ko'p yillik o'rtacha qiymatga nisbatan chetlanishi, %


3. Noyabrda kuzgi g'alla ekinlari uchun agrometeorologik sharoitlar va dala ishlari

Noyabr oyi davomida vodiy viloyatlarida ekilgan kuzgi g'alla ekinlari o'suvi uchun yog'ingarchilik defitsiti kuzatildi. Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlarida kuzgi g'alla ekin maydonlarida oylik yog'ingarchilik me'yorning 21,2%–47,7% ni tashkil etdi. Bu tuproqda namlik zaxirasining kamayishiga olib keldi. Faqatgina oyning birinchi o'n kunligi oxirlarida kuzatilgan yog'ingarchilik vodiyning markaziy, sharqiy va shimoliy qismlaridagi ekin maydonlarida tuproqning ustki qismida yetarlicha namlikni hosil qildi. Ammo, mazkur namlikning tuproqda uzoq saqlanishi uchun havo haroratining oy davomida yuqori bo'lishi tuproqni tez quruqlashishiga olib keldi. Noyabrda kuzgi g'alla ekinlari o'suvi uchun atmosfera yog'inlarining tabiiy namlik zaxirasi yetarli bo'lmadi.

Mazkur oyda o'rtacha oylik havo haroratining iqlimiy me'yordan 2–4 daraja yuqori bo'lishi kuzgi g'alla vegetatsiya uchun qulay bo'ldi. Kuzgi g'alla ekin maydonlarida o'rtacha oylik havo harorati $+7^{\circ}\text{C}$ – $+11^{\circ}\text{C}$ iliqni tashkil etdi. Oy davomida barcha ekin maydonlarida o'rtacha sutkalik havo haroratining orqama-ketin $+5^{\circ}\text{C}$ dan pasayish bilan bog'liq ob-havo sharoitlari kuzatilmadi. Bu vodiyning barcha hududlarida kuzgi g'alla ekin maydonlarida g'alla tuplarini oyning so'ngi kunlariga qadar o'suv davri kuzatilishiga olib keldi. Kuzgi g'alla ekish davridan boshlab noyabr oyi so'ngigacha qadar vodiy viloyati ekin maydonlarida tuproq muzlash hodisalari qayd etilmadi.

Kuzgi g'alla ekinlari oy davomida ko'p miqdorda samarali haroratlar yig'ishi hisobiga oyning so'ngi kunlariga kelib, joylarda ekilgan g'alla ekinlarining katta qismi tuplash davriga o'tgani ma'lum bo'ldi. Namangan, Farg'ona va Andijon viloyati Gidrometeorologiya boshqarma agrometeorologlari bilan birgalikda 28-29 noyabr kunlari vodiy bo'ylab g'alla ekin maydonlarida dala ishlari, ularda agrometeorologik sharoitlarni tahlil qilish uchun tasdiqlangan avtoyo'nalaish asosida har bir tumandagi tajriba dala maydonlaridagi kuzgi g'alla rivojlanishi o'rganib chiqildi. Unga ko'ra, 28-29

noyabr kunlari holatiga Namangan, Andijon va Farg'ona viloyati g'alla ekin maydonlarida o'simliklarda 40% dan 70% gacha tuplash davri kuzatildi (2-jadval). Noyabrning so'ngi kuniga kelib, vodiy viloyatlarida kuzgi ekilgan g'alla ekin maydonlarida o'simlik balandligi 11-20 sm ni tashkil etdi (Rasm-6). Vodiyning markaziy hamda g'arbiy mintaqalarida g'alla ekin maydonlarida bug'doy o'simligi rivojida biroz kechikish ro'y berdi. Andijon viloyati g'arbiy va markaziy tumanlarida bug'doy nihollari o'rtacha balandligi 17-20 sm gacha ekanligi aniqlandi.



6-Rasm. Farg'ona vodiysida 28-29 noyabr holatiga g'alla ekinlari balandligi (avtoyo'nalish monitoring ma'lumotlari).

2-jadval

Viloyat	Tuman	Rivojlanaish fazasi, %			G'allaning balandligi, sm	G'alla o'simliklarining 1 m ² uchun o'rtacha qalinligi		G'alla ekinlari holatini baholash, %	
		1-2 barg	3-4 barg	tuplash		Ko'chatlar	Poyachalar	Yaxshi	Qoniqarli
Farg'ona	Farg'ona	5	37	58	13	454	754	82	18
	Qo'shtepa	3	42	55	14	465	775	83	17
	Oltiariq	4	37	59	15	500	780	85	15
	Rishton	4	43	53	14	470	784	85	15
	Bog'dod	3	45	52	13	472	788	85	15
	Uchko'prik	4	42	54	13	460	765	85	15
	Buvayda	5	42	53	12	440	730	84	16
	Furqat	5	41	54	14	460	762	83	17
	Beshariq	4	40	56	13	462	769	83	17
	O'zbekiston	5	40	55	11	430	708	82	18
	Dang'ara	5	38	57	12	440	726	84	16
	Toshloq	5	38	57	12	455	756	83	17
	Yozyovon	5	40	55	11	425	698	83	17
	Quva	4	42	54	13	458	760	85	15
	Quvasoy	6	40	54	11	415	680	81	19
Farg'ona sh	5	42	53	11	424	696	81	19	
Andijon	Oltinko'l	10	30	60	18	254	493	85	15
	Andijon	23	33	44	16	279	619	88	12
	Asaka	21	20	59	17	339	501	87	13
	Baliqchi	10	20	70	17	368	527	87	13
	Bo'ston	22	26	52	10	322	532	83	17
	Buloqboshi	21	29	50	14	289	408	83	17
	Jalaquduq	17	33	50	15	413	686	87	13
	Izboskan	24	26	50	14	384	540	87	13
	Qorg'ontepa	20	39	41	13	342	481	86	14
	Marxamat	20	34	46	13	261	545	86	14
	Paxtaobod	15	32	53	14	377	535	86	14
	Ulug'nor	20	22	28	12	328	487	86	14
	Xo'jaobod	22	22	56	20	424	728	88	12
Shaxrixon	15	32	53	12	301	520	87	13	
Naman-gan	Mingbuloq	15	27	58	15	460	690	80	20
	Kosonsoy	26	34	40	13	390	585	78	22
	Namangan	12	28	60	15	435	652	80	20
	Norin	11	24	60	15	450	675	80	20
	Pop	16	26	58	15	465	697	80	20
	To'raqo'rg'on	13	29	58	16	455	682	80	20
	Uychi	15	27	58	15	450	675	80	20
	Uchqo'rg'on	17	29	54	14	449	673	80	20
	Chortoq	16	28	56	14	445	667	80	20
	Chust	19	27	54	14	445	667	80	20
Yangiqo'rg'on	19	28	53	15	440	660	80	20	

4. Fermerlar uchun g'alla ekinlarini kuchli sovuqdan himoyalash tadbirlari

Ekilgan kuzgi boshoqli don ekinlari kuchli sovuqdan zararlanmasligi uchun quyidagi chorra-tadbirlar ko'rilishi kerak:

- kech ekilgan, ayniqsa, ayrim 1-2 barg holatida bo'lgan g'alla maydonlariga chirigan mahalliy o'g'it (go'ng) sepish;
- g'o'za qator oralariga ekilib, hozirgi kungacha g'o'zapoyalardan tozalanmagan maydonlarda g'o'zapoyadan tozalash ishlarini sovuq kunlar tugaguncha to'xtatish;
- elektr energiya cheklovlari bo'lishini inobatga olib, nasos agregatlari va lotok tarmoqlari muzlab yorilishining oldini olish uchun ulardan foydalanishni vaqtincha to'xtatish.

Xulosa

Farg'ona vodiysi viloyatlarida noyabr oyi kuzatuvlar tarixidagi eng issig'i bo'ldi.

Noyabrda yuqori harorat fonida vodiy viloyatlarida ekilgan kuzgi g'alla o'simligida yuqori samarali haroratlar jamlashi hisobiga oy so'ngiga kelib 40-70% tuplash kuzatildi.

2023 yilning noyabr oyi quruq bo'ldi. Oylik yog'ingarchilik miqdori ko'p yillik iqlimiy me'orning atigi 20-50% ni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://hydromet.uz/uz/node/4158>